



FUQAROLIK HUQUQINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI: AN'ANAVIY VA INNOVATSION HUQUQIY YONDASHUVLAR

Abdullayeva Barno To'liboyevna

Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.21278724>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 05-iyul 2026 yil

Ma'qullandi: 07-iyul 2026 yil

Nashr qilindi: 09-iyul 2026 yil

KEY WORDS

raqamli transformatsiya, fuqarolik huquqi, elektron shartnoma, smart-kontrakt, elektron tijorat, intellektual mulk huquqi, shaxsga doir ma'lumotlar, elektron raqamli imzo.

ABSTRACT

Zamonaviy jamiyatda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi huquqiy tizimning barcha sohalariga, xususan, fuqarolik huquqiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Mazkur maqolada raqamli transformatsiyaning fuqarolik huquqi institutlariga, jumladan, shartnomaviy munosabatlar, elektron tijorat, intellektual mulk va shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish sohalariga ta'siri tahlil qilingan. Maqolada elektron shartnomalar, smart-kontraktlar, elektron raqamli imzo kabi innovatsion huquqiy vositalarning mohiyati yoritilib, an'anaviy va innovatsion yondashuvlarning afzallik hamda kamchiliklari qiyosiy jadval asosida ko'rsatib berilgan.

Shuningdek, maqolada raqamli munosabatlarni tartibga soluvchi milliy qonunchilik — jumladan, Fuqarolik kodeksi, "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi, "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi va "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonunlar — hamda Estoniya, Janubiy Koreya, Singapur va Daniyaning xalqaro tajribasi o'rganilgan. Tadqiqot natijalari asosida fuqarolik huquqi institutlarini raqamli davrga moslashtirish, milliy qonunchilikni xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish hamda fuqarolarning raqamli savodxonligini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Bugungi kunda raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi jamiyat hayotining barcha sohalariga, jumladan, huquqiy tizimga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Raqamli transformatsiya fuqarolik huquqining turli institutlariga — xususan, shartnomaviy huquq, intellektual mulk huquqi, oldi-sotdi munosabatlari va boshqa yo'nalishlarga faol kirib bormoqda. Bu jarayon huquqiy munosabatlarning yangi formatlarini shakllantirib, an'anaviy yondashuvlarni qayta ko'rib chiqishga turtki bermoqda.

Mazkur maqolada fuqarolik huquqida raqamli transformatsiyaning ta'siri, sohalar kesimida an'anaviy va innovatsion yondashuvlarni qiyosiy tahlil qilish, huquqiy mexanizmlarning samaradorligini baholash, shuningdek, ushbu sohani tartibga soluvchi milliy

va xorijiy qonunchilik hamda mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari o'rganiladi. Tadqiqot davomida raqamli transformatsiya fuqarolik huquqining qaysi sohalariga ko'proq ta'sir ko'rsatayotgani, an'anaviy yondashuvdan innovatsion yondashuvga o'tish jarayonida qanday himoya choralari ko'rilyotgani va bu borada yuzaga kelayotgan muammolarga javob topishga harakat qilinadi.

II. ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Raqamli transformatsiya — davlat va nodavlat tashkilotlari faoliyatini optimallashtirish maqsadida eng yangi raqamli texnologiyalar va boshqaruv usullarini joriy etish jarayoni bo'lib, unga jarayonlarni avtomatlashtirish, ma'lumotlarni tahlil qilish uchun raqamli vositalarni joriy etish, elektron hukumatni rivojlantirish va davlat xizmatlarini takomillashtirish kiradi (Uzkomnazorat, 2024). Raqamlashtirish va avtomatlashtirish jarayonlaridan farqli o'laroq, raqamli transformatsiya faqat mavjud jarayonlarni elektron ko'rinishga o'tkazish bilan cheklanib qolmaydi, balki tubdan yangi huquqiy mexanizmlarning shakllanishiga olib keladi.

Shartnomaviy munosabatlarning raqamlashuvi

An'anaviy shaklda tuziladigan shartnomalar o'rnini bugungi kunda elektron shartnomalar egallamoqda. Qonunchilikka ko'ra, elektron shartnoma — tovarlar (ishlar, xizmatlar) oldi-sotdisi uchun axborot tizimlaridan foydalangan holda sotuvchi va xaridor o'rtasida tuziladigan shartnoma hisoblanadi (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 2021). Elektron shartnomalar quyidagi asosiy shakllarda amalga oshiriladi:

1. Oddiy formatdagi shartnomalar — hech qanday qo'shimcha rasmiylashtirishni talab qilmaydigan, oddiy elektron pochta orqali kelishuvga erishiladigan shartnomalar;

2. Elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan shartnomalar — elektron hujjatdagi axborotni elektron raqamli imzoning yopiq kaliti yordamida maxsus o'zgartirish natijasida hosil qilingan, hamda ochiq kalit yordamida hujjatdagi axborotning xatosizligini va imzo egasining shaxsini aniqlash imkonini beruvchi elektron raqamli imzo orqali tasdiqlanadigan shartnomalar ("Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi qonun);

3. Smart-kontraktlar — blokcheyn texnologiyasi asosida avtomatik tartibda tuziladigan shartnoma turi bo'lib, raqamli tranzaksiyalarni avtomatik amalga oshirish orqali tomonlarning huquq va majburiyatlari bajarilishini ta'minlaydi (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2022).

Smart-kontraktlarning huquqiy tan olinishi davlatlar kesimida turlicha yondashuvga ega. Xususan, Belarusiyada aqlli shartnomalarning qo'llanilishi va bajarilishi uchun aniq belgilangan qonunchilik asosi yaratilgan, shuningdek, Avstraliya va Buyuk Britaniyada ham ularning ishlashiga ruxsat berilgan, Bangladesh kabi ba'zi davlatlarda esa Ethereum asosidagi aqlli shartnomalar qonuniy kuchga ega deb tan olinmagan va taqiqlangan (LSJ, 2023). O'zbekistonda "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasida elektron hukumatni rivojlantirish va raqamli texnologiyalarni joriy etish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan bo'lsa-da, amaliyotda smart-kontraktlardan foydalanish hali cheklangan bo'lib, bu sohani tartibga soluvchi maxsus qonunchilik hanzu ishlab chiqilmagan.

Elektron tijorat munosabatlari

Raqamli texnologiyalarning rivojlanishi shartnomaviy munosabatlar bilan bir qatorda savdo-sotiq munosabatlariga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Elektron tijorat — tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) tadbirkorlik faoliyati doirasida axborot tizimlaridan foydalangan holda elektron savdo maydonchasi orqali tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshiriladigan

oldi-sotdisi hisoblanadi. Ushbu sohaning rivojlanishi fuqarolik huquqi, iste'molchilar huquqlarini himoya qilish, soliq va bojxona qonunchiligiga bevosita ta'sir qiladi. Elektron tijorat Uzum Market, Temu, Alibaba kabi onlayn platformalar orqali amalga oshirilib, xaridlar ko'pincha ommaviy oferta shaklidagi elektron shartnomalar asosida rasmiylashtiriladi, pul o'tkazmalari esa Payme, Click, PayPal kabi raqamli to'lov tizimlari orqali bajariladi. O'zbekistonda elektron tijorat "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonun, Fuqarolik kodeksi va Soliq kodeksi bilan, Yevropa Ittifoqida Umumiy ma'lumotlarni himoya qilish reglamenti (GDPR), AQShda esa "Digital Millennium Copyright Act" kabi hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Intellectual mulk huquqining raqamli muhitdagi holati

Fuqarolik huquqining yana bir muhim sohasi bo'lgan intellektual mulk huquqiga ham raqamli transformatsiya sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Axborot texnologiyalarining keng qo'llanilishi mualliflik huquqlari, patentlar, savdo belgilari va boshqa intellektual mulk obyektlarining himoya mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etadi, chunki raqamli davrda mualliflik huquqlarini buzish ancha osonlashgan. Elektron kitoblar, musiqa, film va dasturiy ta'minotni noqonuniy ko'chirish hamda tarqatish global muammoga aylanib bormoqda, bunga yorqin misol sifatida "The Pirate Bay" platformasini keltirish mumkin. O'zbekistonda internet muhitida mualliflik huquqlarini bevosita tartibga soluvchi maxsus qonun mavjud emas, biroq bunday munosabatlar "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi, "Axborot xavfsizligi to'g'risida"gi qonunlar, shuningdek, Fuqarolik, Jinoyat va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslar orqali himoya qilinadi. Xorijiy tajribada Yevropa Ittifoqining "Digital Single Market Directive"si va AQShning "Digital Millennium Copyright Act"i muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish

Barcha sohalarning raqamlashuvi shaxsiy ma'lumotlarning himoyasini dolzarb masalaga aylantirmoqda. Qonunchilikka ko'ra, shaxsga doir ma'lumotlar — muayyan jismoniy shaxsga taalluqli bo'lgan yoki uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan, elektron, qog'oz yoxud boshqa moddiy shaklda qayd etilgan axborotdir ("Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonun). Kiber hujumlar natijasida shaxsiy ma'lumotlarning tarqalib ketishi hollari ortib borayotgani sababli, O'zbekistonda ushbu sohani tartibga solish uchun "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonun, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks va Jinoyat kodeksi qabul qilingan. Xorijiy tajribada Yevropa Ittifoqining Umumiy ma'lumotlarni himoya qilish reglamenti (GDPR) va Kaliforniya iste'molchilar maxfiyligi to'g'risidagi qonuni (CCPA) shaxsiy ma'lumotlar himoyasining eng ilg'or namunalari hisoblanadi.

III. NATIJALAR

Fuqarolik huquqi sohalarida an'anaviy va innovatsion yondashuvlarni qiyosiy tahlil qilish quyidagi natijalarni ko'rsatdi.

Shartnoma tuzish jarayonidagi farqlar

An'anaviy yondashuvda shartnoma tomonlar bevosita uchrashib, hujjatlarni qo'lda imzolash va qog'oz shaklida saqlash orqali tuzilgan bo'lsa, innovatsion yondashuvda shartnomalar elektron shaklda tuzilib, elektron raqamli imzo orqali tasdiqlanadi, bu esa vaqt va mablag'ni sezilarli darajada tejaydi. Shu bilan birga, elektron shartnomalarning huquqiy kuchi qonun bilan tan olingan bo'lsa-da, ayrim hollarda ularni isbotlash mexanizmlari murakkablashishi mumkin, bu esa innovatsion yondashuvning nisbiy kamchiligi hisoblanadi.

Sud jarayonlarining raqamlashuvi

Nizolar yuzaga kelganda an'anaviy usulda sudga murojaat qilish shaxsning bevosita sudga borishini, ariza topshirishini, qog'oz hujjatlar tayyorlashini va navbatlarda uzoq vaqt kutishini talab qilardi. Texnologiyalarning sud tizimiga tatbiq etilishi bu jarayonlarni sezilarli darajada yengillashtirdi: bugungi kunda fuqarolar "sud.uz" platformasi orqali onlayn da'vo arizalarini topshirish, "yurxizmat.uz" platformasi orqali esa maxsus advokat jalb etmasdan tayyor shablonlar asosida hujjat tayyorlash imkoniyatiga ega bo'ldi. Bundan tashqari, hujjatlarni elektron shaklda yuborish va qabul qilish, SMS yoki elektron pochta orqali bildirishnomalar olish imkoniyati ham yaratildi.

Fuqarolarning raqamli savodxonligi

Raqamlashtirish jarayonining samaradorligi fuqarolarning raqamli savodxonlik darajasiga ham bevosita bog'liq. Ko'pchilik hamon qog'oz hujjatlarni ishonchli deb hisoblaydi, elektron raqamli imzo va onlayn shartnomalar esa ular uchun tushunarsiz bo'lib qolmoqda. Shu sababli davlat tomonidan aholiga huquqiy xizmatlarning raqamli shakllari haqida muntazam ma'lumot berish va tushuntirish ishlarini kuchaytirish maqsadga muvofiqdir.

Fuqarolik huquqida raqamli va an'anaviy yondashuvlarning asosiy jihatlarini yanada aniqroq tushunish uchun ularni quyidagi jadval orqali qiyoslab ko'rib chiqamiz.

Ko'rsatkich	An'anaviy yondashuv	Innovatsion yondashuv
Yondashuv mohiyati	Hujjatlar qog'oz shaklida, shaxsiy ishtirok bilan yuritiladi	Elektron platformalar, onlayn tizimlar va sun'iy intellekt orqali avtomatlashtirilgan
Ishonchlilik	Notarial tasdiq, guvohlar va qog'oz hujjatlar orqali kafolatlanadi	Raqamli imzo, blokcheyn texnologiyasi va autentifikatsiya tizimlari orqali kafolatlanadi
Huquqiy asos (O'zbekistonda)	Fuqarolik kodeksi, Notariat to'g'risidagi qonun, sud protsessual qonunchiligi	"Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi va "Elektron hukumat to'g'risida"gi qonunlar
Afzalliklari	Huquqiy asoslar mustahkam; oddiy fuqarolar uchun tushunarli; hujjatlar aniq saqlanadi	Tezkorlik, qulaylik, masofadan ishlash imkoniyati, xarajatlarning kamayishi, shaffoflikning ortishi
Kamchiliklari / tahdidlari	Vaqt talab etadi; ko'p qog'oz sarflanadi; geografik cheklovlar mavjud	Kibertahdidlar; raqamli savodxonlikning pastligi; xatolik xavfi; shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligi muammolari
Fuqarolarga qulayligi	Keksalar yoki raqamli savodxonligi past fuqarolar uchun qulay	Yoshlar va raqamli vositalardan foydalana oladiganlar uchun qulay

Jamiyat uchun foydasi	Barqaror va vaqt sinovidan o'tgan tizim	Jarayonlarni soddalashtiradi, tizimni avtomatlashtirib inson omilini kamaytiradi
Xalqaro raqobatbardoshlik	Chet eldagi ilg'or tizimlarga har doim ham mos emas	Xalqaro standartlarga yaqin, transmilliy hamkorlik uchun ochiq
Yangi qonunchilik talab qilinadimi?	Asosiy qonunchilik bazasi allaqachon mavjud	Ha, yangi normalar talab qilinadi (raqamli meros, sun'iy intellekt va h.k.)

Jadvalda keltirilgan taqqoslash shuni ko'rsatadiki, an'anaviy va innovatsion yondashuvlarning har ikkalasi ham o'ziga xos ustunlik va zaif tomonlarga ega. Raqamlashtirish fuqarolik huquqi munosabatlarini yanada samarali va qulay amalga oshirishga xizmat qilsa-da, bu jarayonda shaxsiy ma'lumotlar xavfsizligini ta'minlash, huquqiy ehtiyot choralarini ko'rish va fuqarolarning raqamli savodxonligini oshirish zarur.

IV. MUHOKAMA

Milliy darajadagi huquqiy asoslar

O'zbekiston Respublikasida fuqarolik huquqi sohasidagi raqamli munosabatlarni tartibga soluvchi asosiy hujjat Fuqarolik kodeksi hisoblanadi, unga yildan-yilga elektron to'lovlar, elektron hisoblash vositalari va boshqa raqamli texnologiyalarga oid qo'shimchalar kiritib borilmoqda. 2004-yilda qabul qilingan "Elektron hujjat aylanishi to'g'risida"gi qonun elektron hujjatlarning huquqiy kuchga egaligini, ularni rasmiylashtirish tartibini hamda elektron imzo orqali tuzilgan bitimlarning haqiqiylikini tartibga soladi, "Elektron raqamli imzo to'g'risida"gi qonun esa elektron imzoning ishonchliligi va bitimlarning qonuniyligini kafolatlaydi. 2020-yil 15-sentabrda qabul qilingan "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonun elektron savdo-sotiq, raqamli platformalarda tuziladigan shartnomalar, to'lov tizimlari va elektron axborot almashinuvi bilan bog'liq munosabatlarni tartibga solsa, "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonun axborot texnologiyalarini joriy etish hamda axborot resurslari va tizimlarining huquqiy asoslarini belgilaydi. "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonun esa fuqarolarning shaxsiy ma'lumotlarini raqamli muhitda himoya qilishga qaratilgan bo'lib, ayniqsa shartnoma tuzish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro tajriba

Fuqarolik huquqi sohasidagi raqamli transformatsiya jarayonlari nafaqat O'zbekiston, balki ko'plab rivojlangan davlatlar huquqiy tizimida ham dolzarb masala hisoblanadi. Estoniya dunyoda elektron hukumat borasida yetakchi davlatlardan biri bo'lib, uning "X-Road" platformasi barcha davlat ma'lumotlar bazalarini o'zaro bog'lab, fuqaro va davlat idoralari o'rtasidagi ma'lumot almashinuvini tezlashtiradi hamda shaxsiy ma'lumotlarning xavfsizligini ta'minlaydi. Janubiy Koreyada "Electronic Government Act" qonuni elektron hujjat aylanishi, onlayn xizmatlar ko'rsatish va ma'lumotlar himoyasiga oid qoidalarni belgilab, mamlakatning Birlashgan Millatlar Tashkiloti elektron hukumat reytinglarida yuqori o'rinlarni egallashiga xizmat qilmoqda. Singapurda "Electronic Transactions Act" (ETA) elektron tijorat, elektron to'lov tizimlari va masofaviy xizmat ko'rsatish uchun huquqiy asos yaratsa, Daniyada "Act on

Digital Signatures” qonuni elektron raqamli imzolarni qonuniylashtirib, davlat idoralari bilan elektron hujjat almashinuvini rasmiylashtirgan. Ushbu davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, raqamli huquqiy munosabatlarni samarali tartibga solish uchun xalqaro standartlar va ilg'or xorijiy qonunchilik tajribasidan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

V. XULOSA

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, raqamli transformatsiya fuqarolik huquqining barcha asosiy institutlariga — shartnomaviy munosabatlar, elektron tijorat, intellektual mulk va shaxsga doir ma'lumotlarni himoya qilish sohalariga — chuqur integratsiyalashib, ularning an'anaviy tartib-qoidalarini qayta shakllantirmoqda. Elektron hujjatlar va bitimlarning qonuniy kuchga ega bo'lishi, smart-kontraktlar vositasida majburiyatlarning avtomatik bajarilishi hamda onlayn platformalarda amalga oshiriladigan tovar-xizmat ayirboshlash jarayonlari fuqarolik qonunchiligini zamonaviylashtirishni, shuningdek, ta'minot va kafolat mexanizmlarini kengaytirishni talab qiladi.

Milliy huquqiy muhitda “Elektron hujjat aylanishi to'g'risida”, “Elektron raqamli imzo to'g'risida” hamda “Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida”gi qonunlar raqamli munosabatlarni tartibga solish bo'yicha mustahkam baza yaratgan bo'lsa-da, amaliyotda yuzaga kelayotgan yangi texnologik tahdidlar, kibertajovuzlar va sun'iy intellektning huquqiy maqomiga oid noaniqliklar hali yetarlicha qonuniy asosga ega emas. Shu sababli milliy normativ-huquqiy bazani xalqaro standartlar (GDPR, ETA, X-Road kabi ilg'or islohot loyihalari) asosida muntazam ravishda takomillashtirib borish zarur.

Xulosa qilib aytganda, milliy va xalqaro qonunchilikni uzviy bog'lagan holda an'anaviy va innovatsion yondashuvlarni uyg'unlashtirish orqali fuqarolik huquqi institutlarini raqamli davrga moslashtirish — samarali va barqaror huquqiy muhitni ta'minlash, fuqaro va jamiyat manfaatlarini muhofaza qilish, shuningdek, iqtisodiy va ijtimoiy aloqalarni yanada rivojlantirish uchun muhim garovdir..

Adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi.
2. “Elektron hujjat aylanishi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonuni, 2004-yil.
3. “Elektron raqamli imzo to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining qonuni. –
4. “Elektron tijorat to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi qonuni, 2020-yil 15-sentabr.
5. “Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasining qonuni.
6. Elektron tijoratda bitimlarni amalga oshirish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori.
7. O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni va kripto-aktivlar aylanmasi sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori.
8. Uzkomnazorat. “Raqamli transformatsiya nima?” Accessed 2024. – https://uzkomnazorat.uz/en/info_service/news/255b194f-9168-4d19-b0b6-12cc4dbb0545
9. LSJ. “Smart Contracts: What Lawyers Need to Know.” Accessed 2023. – <https://lsj.com.au/articles/smart-contracts-what-lawyers-need-to-know/>
10. “Raqamli fuqarolik huquqi: XXI asr muammolari va yechimlari” (maqola). – <https://scientific-jl.com/trt/article/download/3345/3193/6386>
11. “Smart-kontraktarning (aqlli shartnoma) huquqiy va raqamli-texnologik mazmuni” (maqola). – <https://inacademy.uz/index.php/si/article/view/20767/13963>

12. U.S. Copyright Office. "The Digital Millennium Copyright Act of 1998: Summary." – <https://www.copyright.gov/legislation/dmca.pdf>
13. "Yuridik xizmatlar sohasida raqamli transformatsiyaning fuqarolik huquqiga ta'siri" (maqola). – <https://scientific-jl.org/mod/article/view/2952/2881>
14. UNCITRAL. "Model Law on Electronic Commerce." – https://uncitral.un.org/en/texts/ecommerce/modellaw/electronic_commerce
15. Yevropa Ittifoqi. Directive (EU) 2019/790 (Digital Single Market Directive). – <https://eur-lex.europa.eu/eli/dir/2019/790/oj>.

